XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

Gagarin sh. 130300, O‘zbekiston ko‘chasi, 29-uy. Tel: (72) 312-21-11

2022 - yil 27 - dekabr VI-47-147-3-51-K/22 Mirzacho‘l tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Mirzacho`l tumani Mirzadala SHFY hududidagi ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining ekspert komissiyasining 2022-yil 02-dekabrdagi 08-10826-sonli ekspert xulosasiga asosan Mirzacho`l tumanidagi 6 ta obyektlarni nomlash va qayta nomlash to`g`risidagi ijobiy xulosasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining ekspert komissiyasining 2022-yil 02-dekabrdagi 08-10826-sonli ekspert xulosasiga asosan Mirzacho`l tumani Mirzadala SHFY hududidagi “nomsiz” ko`chaga “Mehnatsevarlar” nomi berilsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (M.Mallayev va S.Siddiqov)lar va tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlari, qishloq aholi punktlari va ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman statistika bo‘limi (O`.Xursanov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Jizzax viloyat boshqarmasi Mirzacho`l tuman filiali (B.Beknazarov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Karimov), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Xudoyberdiev), tuman Tibbiyot birlashmasi (B.Suyunov)larga yangi va qayta nomlangan mahalla fuqarolar yig‘ini, qishloq aholi punktlari va ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Mirzacho`l tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Namazova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi, tuman hokimi **Sh.Axmedov**